

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ARIFMETIK AMALLAR BAJARISHDA RAQAMLASH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI

*Karlibaeva Venera Baltamurat qizi*

*Ajiniyoz nomidagi NDPI*

*Boshlang`ich ta'lism yo`nalishi*

*2-B kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang`ich sinflarda arifmetik amallar va ularni bajarishda raqamlash metodikasining umumiy masalalari, arifmetik amallarga doir material konsentrلarga bo`lib o`rganilishi va ularning ahamiyati haqida so`z etilgan.

**Kalit so`zlar:** arifmetik amal, konsentr, o`nlik, yuzlik, minglik, ko`p xonali sonlar, raqamlash, xona birliklari.

Umumiyo`rta ta'lism maktablarida Davlat ta'lism standarti o'quvchilarning harbiriga ta'lism olishda teng imkoniyatlarni yaratib berish, har birining yuqori natijaga erishishlarini rag`batlantirish va shu orqali o'quv-bilim jarayonining farqli tashkil etilishini ta'minlash uchun da'vat etilgan. Davlat ta'lism standartlarining o'quv fani bo'yicha, ta'lism sohalari bo'yicha ishlab chiqarilishi o'quv fanlarining variantini tanlash asosida o'quv metodik majmular, jumladan, boshlang`ich sinflarda matematika o'qitishni takomilashtirishni nazarda tutadi. Boshlang`ich sinflarda arifmetik amallar bajarishni bog'lanish va bilimlarni muvofiqlashtirish tamoyili asosida o'quv fanlarining ichki bog'liqligi va o'quv fanlari aro uzviylikni ta'minlashga yordam beradi. Boshlang`ich sinflarda arifmetik amallar bajarish talablarining o'quvchilar tomonidan bajarilishi ularning tevarak zarur bilim, malaka va ko`nikmalarni egallahshlariga yo`naltiradi.

Boshlang`ich sinflarda arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quv-bilim jarayoniga matematika o'qitish bo'yicha bilim, ko`nikma va malakalarigina emas, balki, shaxsning muayyan asosiy faoliyati majmuasi-mehnat o'quv-biluv, kommunikativ-axloqiy va jismoniy-kamolatiga mos keladigan fazilatlarining shakllanishini ham taminlaydi. Hozirgi kunda tizimda yuz berayotgan ijtimoyi - iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ko'rsatib o'tilgandek, har bir sinf o'quvchisiga oldiga muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar boshlang`ich ta'lism uchun ham xos bo'g'lnlarni ajratish imkonini beradi, bu bo'g'lnlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limga joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilish mumkin.

Shuningdek, arifmetik boshlang`ich o'rganish uslubi ham mukammallashtirilgan. Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishning barcha bosqichlaridan ularning tiklash faoliyatini aktivlashtirishga tayanch faktlar va kuzatishlarni o'z vaqtida umumlashtirishga, ayrim masalalar orasidagi o'zaro

bog'lanishni tayinlashda, bolalarda mustaqil ishslash o'quvlarini paydo qilishda qaratilgan yangi ilmiy asoslangan usul va uslubdagi maktab dasturi ichiga kiritilgan. O'quv materialini o'quv yillari bo'yicha taqsimlanishida o'rganilayotgan sonlar sohasini asta-sekin kengayib borishi ko'zda tutiladi.

1-sinf 1 dan 20 gacha sonlar.

2-sinf 1 dan 100 gacha sonlar.

3-sinf 1 dan 1000 gacha sonlar.

4-sinf 1 dan 1000000 gacha sonlar.

Va hakozo ya'ni ko'p xonali sonlar o'rganiladi.

Arifmetik amallarga doir material konsentrلarga bo'lib o'rganiladi. Boshlang`ich sinflarda 4 ta konsentr ko'zda tutiladi: o'nlik, yuzlik, minglik, ko'p xonali sonlar. Har bir konsentr o'z mazmuniga ko'ra sistematik arifmetika kursining asosiy masalalarni aks ettiradi, shuning uchun ham o'quvchilar u yoki bu chegaralar ichida sonlar ustida amallarni o'rganar ekanlar, umuman arifmetikaning mohiyati to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Har gal yangi sonli material asosida amallar bajarishga qayta-qayta murojaat etish eng muhim arifmetik tushunchalarining mazmunini chuqurlashtirish va kengaytishga sabab bo`ladi. Bundan tashqari, mustahkam o'quv va malakalarining asta-sekin shaklanishi (sanoqda, o'lchashlarda, og'zaki va yozma nomerlashda, hisoblashda va h.k ta'minlanadi, chunki bu amallarni bajarishning usullari umumiyligini saqlagan holda asta-sekin murakkablashtirib boradi. Shunday qilib, har bir oldingi korsentrda nomerlash va arifmetik amallarni o'rganish mos masalalarni kelgusida o'rganish uchun tayyorgarlik ishi bo'lib hisoblanadi, har bir keyingi konsentrda esa ilgari o'rganilgan material umumlashtirilib boriladi va mustahkamlanadi. Boshlang`ich sinf o'quvchisini og'zaki va yozma hisoblash usullari orqali arifmetik amallar qonunlari va xossalarni o`zlashtirishga olib kelish borasida birinchi muvaffaqiyatli harakat qilingan. 10 ichida qo'shishni o'trganishda bolalar qo'shishning o`rin almashish qonuni bilan tanishadilar. 100 ichida qo'shish va ayirishning hisoblash usullari sonni yig`indiga qo'shish va ayirishning hisoblash usullari sonni yig`indiga qo'shish, yig`indini sondan ayirish qoidalariga asoslangan holda ochib beriladi. Yuz ichida sonlarni raqamlashni o`rganishda o'quvchilar yangi sanoq birligi o'nlik va o'nlik sanoq sistemasining muhim tushunchasi xona tushunchasi bilan tanishadilar. Ikki xonali sonlarning hosil bo`lish prinsiplarini nomi va yozuvini, sonlarni og'zaki va yozma raqamlash o`zlashtirishning asosidir. Yuz ichidagi sonlarni raqamlashni o`rganishda o`qituvchining vazifasi o'quvchilarga predmetlarni bittalab, gruppalab sanashga o'rgatish, yuz ichidagi sonlarni o'qish va yozishga o'rgatish, bolalarga o`ngdan chapga hisoblaganda birliklar (1 xona birliklari), o'nliklar (2 xona birliklari) qaysi o`ringa yozilishini aniqlash, u yo bu xona birliklari yo`qligini qanday belgilashni ko'rsatish, birinchi va ikkinchi xona birliklari, xona soni, xona

qo`shiluvchilarining yig`indisi, bir va ikki xonali sonlar kabi tushunchalar va terminlarni o`quvchilar o`zlashtirib olishlariga erishishdan iborat.

Yuz ichida sonlarni raqamlashni o`rganish natijasida o`quvchilar quyidagi bilimlar, malakalar va konikmalarini egallab olishlari kerak:

1. Yuz ichida sonlarni nomlarini ozlashtirish ular o`nliklar va birliklardan qanday hosil bo`lishini tushunish.

2. Sanoqda sonlarning kelish tartibini bilish. Sonlarning natural ketma ketlikdagi o`rinlarini bilganlikka, shuningdek sonlarning unli tarkiblarini bilganlikka asoslanib sonlarni taqqoslay olish.

3. Yuz ichida sonlarni yozish va o`qiy olish, o`ngdan chapga sanalganda birliklar (I xona birliklari) qaysi o`ringa va o`nliklar (II xona birliklari) qaysi o`ringa yozilishini o`zlashtirish.

4. Natural ketma-ketlikni bilganlik asosida sonlarni qo`shish va ayirishni bilish.

Ming ichida sonlarni raqamlashni o`rganishda o`qituvchining vazifasi bolalarni quyidagilarni o`rgatishdan iborat:

1. Predmetlarni bittalab, ontalab va yuztalab guruhlarga birlashtirib sanash.

2. Ming ichida sonlarni oqish va yozish hamda ularning natural qatorda kelish tartibini bilish.

3. Sonlarni yuzliklardan, o`nliklardan va birliklardan hosil qila olish.

4. O`ngdan chapga hisoblaganda birliklar, o`nliklar, yuzliklar qaysi o`ringa yozilishini aniqlash.

5. Sonni xona qo`shiluvchilarining yig`indisi shaklida ifodalash va berilgan sonda istalgan xona birligining umumiy sonini topish. Ming ichida sonlarni og`zaki raqamlashga oid ishni bosqichlarga bo`lib o`rganib borish kerak bo`ladi.

Ko`p xonali sonlarni raqamlashni o`garnishda o`qituvchining asosiy vazifasi yangi sanoq birligi – minglik tushunchasini tarkib toptirish, sinf tushunchasini mohiyatini ochish va shu asosda ko`p xonali sonlarni o`qish va yozishga o`rgatish, bolalarning o`nlik sanoq sistemasiga oid bilimlarining natural ketma-ketlik, sonlarni yozishni pozitsion prinsipiiga oid bilimlarini aniqlash va umumlashtirishdan iborat. Ko`p xonali sonlarni raqamlashni og`zaki va yozma o`rganish bosqichlarini o`z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, o`quvchilar, imkonli boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og`zaki va yozma xulosalar qilishga o`rganishlari kerak. O`qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o`quvchilarining o`rganilayotgan materialni o`zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Bunda o`qituvchi harbir darsda har kuni o`quvchilarining darsda olgan bilimlarini chuqur nazorat qilib borishi, ularning ularning o`zlashtirish darjasini va olgan bilim va ko`nikmalarini tekshirib borishi zarur. Harbir

darsda o`tilgan mavzuni keying mavzu bilan bog`liqli turda o`tib, ular orasida uzviylikni ko`rsatib borishi kerak bo`ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G. Boshlangich sinflarda matematika oqitish metodikasi. (OOY uchun darslik.) Toshkent. Fan va texnologiya. 2005 -yil.
2. Bikbaeva N.U. Sidelnikova R.I. Adambekova G.A. |Boshlang`ich sinflarda matematika oqitish metodikasi. (O`rta maktab boshlang`ich sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma.) Toshkent. O`qituvchi.1996- yil.